



TIJORAT BANKLARIDA ISLOM DARCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING ISTIBOLLI YO'NALISHLARIGA OID ILMiy ADABIYOTLAR TAHLILI

Jiyanov O'ktam

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
ORCID: 0000-0001-7711-6659

Sirojiddinov Shukrullo

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
ORCID: 0009-0004-9893-4406

Annotatsiya. *Islom darchasi – an'anaviy banklar ostida islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi bankning alohida filiali, bo'limi yoki sho'ba firmasi hisoblanadi. Islom darchasi asosan islom banki faoliyati uchun huquqiy baza bo'lmagan sharoitda, ma'lum qonunlar doirasida biron bir tijorat bankiga bo'ysungan holda faoliyat yuritadi. Biz bu tadqiqotda 25 ga yaqin islom darchalariga doir yozilgan maqolalarni tahlil qildik. Tahlillarda asosan islom banki, islom darchasi va an'anaviy bank o'rtasidagi statistik tahlillar, ularning yutuqlari, kamchiliklari va xizmat ko'rsatish sifati to'g'risida ilmiy izlanish olib bordik va kerakli takliflarni berdik.*

Kalit so'zlar: *islom darchalari, islom banklari, islomiy moliyalashtirish, islom bankchiligi, mudoraba, murobaha, an'anaviy moliya.*

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ПЕРСПЕКТИВНЫМ НАПРАВЛЕНИЯМ ФОРМИРОВАНИЯ ИСЛАМСКИХ ОКОН В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Жиянов Уктам

Международная исламская академия Узбекистана
Сирожиддинов Шукрулло

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. *Исламское окно – это отдельный филиал, отдел или дочерняя компания банка, работающая по принципам исламского финансирования в рамках традиционных банков. Исламский филиал преимущественно действует в условиях, когда нет правовой основы для деятельности исламского банка, подчинённого любому коммерческому банку в рамках определённых законов. В этом исследовании мы проанализировали около 25 статей об исламских окнах. В ходе анализа мы в основном провели научное исследование по статистическому анализу между исламским банком, исламским окном и традиционным банком, их достижениями, недостатками и качеством обслуживания и дали необходимые предложения.*

Ключевые слова: *исламские окна, исламские банки, исламское финансирование, исламский банкинг, мудароба, мурабаха, традиционные финансы.*

A LITERATURE REVIEW ON PROMISING AREAS OF FORMATION OF ISLAMIC WINDOWS IN COMMERCIAL BANKS

Jiyanov O'ktam

International Islamic Academy of Uzbekistan

Sirojiddinov Shukrullo

International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation. *An Islamic window is a separate branch, department or subsidiary of a bank operating under the principles of Islamic finance under traditional banks. The Islamic branch mainly operates in conditions where there is no legal basis for the activity of an Islamic bank, subject to any commercial bank within the framework of certain laws. We have analyzed about 25 articles on Islamic windows in this study. In the analysis, we mainly conducted a scientific research on the statistical analysis between the Islamic bank, the Islamic window and the traditional bank, their achievements, shortcomings and the quality of service and gave the necessary suggestions.*

Key words: *islamic windows, islamic banks, islamic finance, islamic banking, mudaraba, murabaha, traditional finance.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahon miqyosidagi inqirozlarni keltirib chiqarayotgan an'anaviy moliya tizimi tobora yangi tamoyillar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qilmoqda. Shu munosabat bilan, islom moliya institutlari bugungi kunda samarali muqobil tizim o'laroq, nafaqat o'zlarining ishonchliligini isbotladilar, balki inqiroz vaziyatlarida eng kam zarar ko'rgan moliya institutlari qatoridan joy olishdi. Islom iqtisodiy modelining maqsadi zamonaviy sharoitda moliya sohasidagi muammolarni hal qilishda muqobil yondashuvni o'z ichiga oladi. Lekin, islom moliya institutlarining asosiy qismini tashkil qiladigan islom banklarining faoliyati ba'zi davlatlar hukumatlari tomonidan cheklangan bir vaziyatda, tijorat banklarida islom tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi islom darchalari dunyo bozorida bu moliya tizimining tobora mustahkam o'rin olishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda islom moliya sanoatining o'sishi MDH mamlakatlari orasida sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank faoliyatining e'tiborini tortmoqda (Kayimova, 2021). MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki sektori sezilarli darajada o'sadi.

2021-yilda Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurotov bugungi kunda 14 ta bankda islom darchasini yo'lga qo'yish ustida ishlar boshlangani va bunda islom tamoyillari asosida kredit berish ishlari amalga oshirilishi haqida gapirib o'tdi. "14 ta bankda islom darchalarini yo'lga qo'yish ustida ishlar ketmoqda. Biz oldin juda oddiy o'ylar ekanmiz. Islom davlatlari banklarida o'zining ma'lum jihatlari bor ekan. Ya'ni men sizga islom tamoyillari asosida kredit berishim uchun men sizga beradigan resursni ham islom tamoyillari asosida jalb qilishim kerak bo'ladi. Ya'ni men foizga depozit jalb qilib sizga islom tamoyili asosida kredit bersam, siz olmasligingiz mumkin. Chunki depozit jalb qilish islom tamoyiliga javob bermaydi. Bu borada biz, eng avvalo, islom moliyasi bo'yicha savodxonlikni oshirish borasida ma'lum ishlarni amalga oshirishimiz kerak" deydi Markaziy bank raisi⁴⁸. Uning ta'kidlashicha, islom moliyasiga oid qonun loyihasi qonunchilik palatasida birinchi o'qishdan o'tgan. Ushbu qonun loyihasida islom moliyasi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun mikromoliya tashkilotlariga ruhsat berilgan. Bu borada tegishli normativ hujjatlar ishlab chiqilish jarayonida.

⁴⁸ <https://www.spot.uz/oz/2021/10/22/islamic-bank/>

Bu bo'yicha Qishloq Qurilish bank, Trastbank va Hamkorbank birinchilardan bo'lib O'zbekistonda Islom darchalarini ochishga yaqin turibdi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugunki kunda dunyoda "islom moliya"si muqobil moliyalashtirish vositalari taklif etuvchi tizim sifatida rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Islom iqtisodiyoti, islom moliya tizimi va muassasalari rivojlanar ekan, islom tamoyillariga mos keluvchi islom moliya instrumentlarini o'zida haqqoniy aks ettiruvchi moliya hisobi qoidalarini ishlab chiqish, ularni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Islom moliyasi va uning rivojlanish istiqbollari doir mavzuda ilmiy izlanish olib borayotgan olimlardan biri Farhana Afroj (2022) "Bangladeshdagi bank sektorining moliyaviy kuchi: KABDL (CAMEL) tahlili" nomli ilmiy ishida empirik tahlillar asosida olib borilgan. Ushbu tadqiqot Bangladesh bank sektorining moliyaviy kuchini o'rganishga qaratilgan. KABDL doirasida banklarning moliyaviy mustahkamligini tekshirish uchun boshqaruv samaradorligi, kapital kuchi, daromad olish qobiliyati, aktivlar sifati va jamlangan likvidlikdan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot natijasida islom banki likvidligi yuqori bo'lgan an'anaviy va islomiy darcha banklariga qaraganda moliyaviy jihatdan kuchliroq va KABDL tarkibiy qismlarida moliyaviy jihatdan kuchli mavqega ega ekanligi o'rganilgan. Lekin, islom banklari va darchalari o'rtasidagi statistikalar to'liq tahlil qilinmagan.

Hakim Ben Ofman va Hunayda Mersni (2014) "Yaqin Sharq mintaqasidagi islom banklari va oddiy banklar tomonidan mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlari uchun ixtiyoriy zaxiralardan foydalanish" mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. Ushbu maqolaning maqsadi yaqin Sharq mintaqasidagi islom banklari va an'anaviy banklarning daromadlarini boshqarish amaliyotini o'rganishdir. 2000-2008 yillar mobaynida Yaqin Sharq mintaqasidagi 21 ta islom banki, 18 ta islom darchasi va 33 ta an'anaviy bank namunasidan foydalanilgan. Maqolaning bir kamchiligi shundan iboratki, barcha islom banklari uchun ma'lumotlar mavjud emasligini hisobga olsak, tadqiqot obyekti nisbatan kichikdir. Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar obyekтини boshqa mintaqadagi barcha islom muassasalar uchun kengaytirishi kerak bo'lgan. Tadqiqotning yana bir yo'li islom banklarida daromadlarni boshqarish siyosatiga potentsial ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganish ham kerak bo'lgan.

Varsha Muneram-Chadi (2020) "Mavrikiyda islom bankchiligi va moliyasining tartibi" nomli ilmiy maqolaning maqsadi Mavrikiyda joriy etilgan me'yoriy-huquqiy bazaning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilish bo'lgan. Hind okeanidagi bu kichik orol davlati islomiy bank mahsulotlarini joylashtirishga intiladi, shu bilan birga ozchilik musulmon aholisiga ega bo'lishiga qaramay, o'zining gibril yurisdiksiyasi doirasida taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilgan. Tadqiqot, shuningdek, an'anaviy bank faoliyatiga nisbatan qo'llaniladigan yaxshi tashkil etilgan me'yoriy-huquqiy baza bilan ba'zi taqqoslashlarni o'z ichiga olgan.

Muhamad Abduh va Mohd Azmi Omar (2012) "Indoneziya misolida islom bankchiligi va iqtisodiy o'sish" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Ushbu maqolaning maqsadi Indoneziya misolida islom bankining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi qisqa muddatli va uzoq muddatli munosabatlarni o'rganish bo'lgan. Birinchidan, Indoneziya hukumati islom bankchiligini targ'ib qilishni davom ettirishi kerak, chunki bu iqtisodiyotga foyda keltirishini ko'rsatgan. Bu Malayziyada bo'lgani kabi ma'lum bir yil davomida erishiladigan islom banki aktivlarining jami bank aktivlariga maqsadli nisbatini belgilash orqali amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda bu koeffitsient 2,8 foizni tashkil etadi va islom bankini iqtisodiyotga yanada ta'sirliroq qilish uchun uni yetarli darajada yuqori foiz qilib belgilash kerak. Buning natijasi o'laroq, hukumat ko'proq islom tijorat banklari, islom darchalari va islom qishloq banklarini tashkil etishni rag'batlantirishi, shu bilan birga mavjud islom banklarini ko'proq filiallar ochishga undashi kerak bo'lgan. Bundan tashqari, xorijiy islom banklarining Indoneziyada faoliyat yuritishiga ruhsat berish ham mahalliy islom banki sanoatida ko'proq

innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ikkinchidan, islom banklari va islomiy moliya institutlari soni ortib borayotgani sababli, ushbu institutlarni boshqarish uchun yetarli malakali kadrlarga ega bo'lish zarurati ham paydo bo'lgan. Mamlakatga, shuningdek, o'qitilgan islom bankirlaridan tashqari, malakali shariat xodimlari va maslahatchilar kerak bo'lgan. Shu munosabat bilan ko'proq oliy o'quv yurtlari va ixtisoslashtirilgan kadrlar tayyorlash institutlari zarur ishchi kuchi ishlab chiqarishni talab qilgan. Lekin, ushbu tadqiqot faqat Indoneziya tajribasi uchun mo'ljallangan va ikkinchidan, formulalarga boshqa o'zgaruvchilarni jalb qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish usulini qo'llaydi.

Ushbu tadqiqotni takomillashtirish uchun keyingi quyidagi yo'nalishlar muhim:

- yetarli miqdordagi ma'lumotlarni to'plash uchun islom moliya tizimini joriy qilgan ba'zi mamlakatlarni ma'lum vaqt davomida birlashtirish va taqqoslash;

- natijalarning ishonchliligini topish uchun turli xil tahlil usullaridan foydalanish;

- natijalarning izchilligini aniqlash uchun to'liq islom moliya tizimi va ikkilamchi bank tizimiga ega mamlakatlar bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazish;

Fauz Mohid Xamis va Rozemaliza Abrashid (2018) "Tanzaniyadagi islom banklarida mijozlarning xizmatlardan qoniqishi va xizmatlar sifati" nomli ilmiy maqolasida Tanzaniya islom banklaridagi mijozlarning bank xizmatlari sifatidan qoniqish yoki qoniqmasligi yoritilgan. Natijalar shuni ko'rsatganki, xizmatlar sifati va mijoz qoniqishi o'rtasida kuchli bog'liqlik borligi aniqlangan. Shuningdek, islom darchalarida talab etilgan me'zonlarning har biri yaxshi darajada bajarilganligi aytib o'tilgan. Tadqiqot qat'iy ravishda xizmat sifatining mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'siriga qaratilgan. Biroq, Tanzaniya islom bankchiligi faoliyati bo'yicha mijozlarning qoniqishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan boshqa muammolar o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur izlanishimiz mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalanganmiz. Bunda ScienceDirect, Google Scholar bazalaridan tegishli kalit so'zlar bilan qidirish orqali 51 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 21 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dodiyev Fozil O'tkurovich va Boboyorov Asilbek Yo'ldoshovichlar (2022) o'zlarining "O'zbekistonda islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari" mavzusidagi maqolasida mamlakatimiz iqtisodiyotida islomiy bank mahsulotlarini joriy etishning zarurligi va ularni o'ziga xos xususiyatlari va turlari tahlil qilgan. Shuningdek, islomiy bank mahsulotlarini joriy etish holati, bu bilan bog'liq muammolar tadqiq etilib, ularni bartaraf etish qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Mualliflar maqolaning xulosa qismida bir qancha xulosa va takliflarni berib o'tgan:

- mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun bank tizimida muqobil moliya institutlarini rivojlantirish va zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etish kerakligi

- mamlakatimizda "islom darchalari" faoliyatini boshlash uchun me'yoriy-huquqiy asos haligacha yaratilmagani;

- mavjud qonun bo'yicha mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini faqatgina nobank kredit tashkilotlari ko'rsatishga haqli, tijorat banklarining "islom darchasi" ochish jarayoni esa murakkab va qiyinligi;

Takliflar esa quyidagilardan iborat:

- mavjud qonunchilik sharoitida tijorat banklari nobank kredit tashkilotlarini ta'sis etib, ular orqali islomiy bank xizmatlarini ko'rsatishni boshlashlari lozim. Ushbu nobank kredit tashkilotlari banklarda "islom darchasi" vazifasini bajaradi.

- mamlakatimizda islom bank mahsulotlarini joriy qilib, uning hajmini keskin oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish kiritib, banklarga islomiy bank xizmatlari ko'rsatishga ruxsat berish lozim.

Dilmurod Yusupaliyevich Xujamkulov, Ruhiddin Xusniddin o'g'li Zayniddinov, Dilmurod Raxmatullayevich Ergashev, Mamajon Axmatjonovich Mamatov, Xusniddin Faxriddinovich O'ktamovlar o'zlarining "O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom banki xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish" (2021) mavzusida ilmiy izlanish olib borishgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi yigirma yil davomida ba'zi bir an'anaviy banklar qo'l ostida ba'zi islom banklari mahsulotlaridan foydalanilganligini o'rganishdan iborat bo'lib, olimlar O'zbekistondagi empirik tajribalarni muhokama qilgan, shuningdek, islomiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajriba va takliflar bilan bog'liq tavsiyalar berilgan. Islom darchasi ko'p hollarda islom moliya tizimi yoki islom moliyasi bo'yicha qonunchilik mavjud bo'lmagan mamlakatlarda o'rnatiladi. Chunki, islom darchasi ma'lum bir davlatning amaldagi qonunlari va qonunchilik bazasidan kelib chiqib, an'anaviy bank mahsuloti sifatida cheklangan miqdordagi xizmat va mahsulotlarni taklif etadi. Islomiy bank xizmatlari va mahsulotlari odatda o'sha mamlakatda tegishli qonunlar qabul qilingandan keyin to'liq taqdim etiladi. Shuning uchun islomiy derazalarni o'rnatishdan eng keng tarqalgan maqsadlar sifatida quyidagilar taqdim etilgan:

1. Mamlakatda islom moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish;
2. Qo'shimcha xarajatlarsiz an'anaviy banklarda mavjud infratuzilma (binolar, xodimlar va boshqalar) asosida islomiy moliyaviy xizmatlarni taklif qilish;
3. O'rnatilgan islom darchalari faoliyatini o'rganish va chuqur tahlil qilish orqali mamlakatimizda "Islom moliyasi va bank ishi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish bo'yicha amaliy takliflar kiritish;
4. Aholi va xususiy sektorning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish;
5. Islom darchasi natijalarini tahlil qilish asosida banklarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

Shuningdek, O'zbekistonda islom bank xizmatlari bozorini rivojlantirish borasidagi ilk qadamlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Xulosa va takliflar qismida islom moliyaviy xizmatlar sohasi O'zbekistonning porloq kelajagi uchun muhim omil, poydevor va rivojlanish istiqboli bo'lishini aytib o'tgan va bu mamlakat iqtisodiyoti uchun keltiradigan foydalarini sanab o'tgan (ishchi o'rinlari, bo'sh pul mablag'ari, diversifikatsiya, yangi kadrlar tayyorlash tizimi va h.k.)

Luqmon Salomiy va Adevali Abiden Adeyim (2015) o'zlarining "Malayziya islom banklarining samaradorligi: islom darchalari va islom banklarining samaradorligining farqi" nomli ilmiy tadqiqotida islom banklari hamda tijorat banklaridagi islom darchalari o'rtasidagi samaradorlikni taqqoslagan. Tahlil natijalarini oladigan bo'lsak Malayziyada 2004-2007 yillar mobaynida islom darchalari islom banklariga qaraganda samaraliroq ekanini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida tijorat banklaridagi moddiy texnika bazasining yaxshiligi, boshqaruvning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va potensial mijozlarning ko'pligini aytib o'tishgan.

Ariyef Ichvanul Hasan va Tastaftiyan Risfandiy (2021) o'zlarining "Islom banklarining barqarorligi: islom banklari va islom darchalari" nomli ilmiy izlanishlarida Indoneziyadagi islom banklari va islom darchalari o'rtasidagi barqarorlik taqqoslangan. Bu tahlilni amalga oshirishda regressiya yondashuvidan foydalanilgan. Islom darchalari islom banklariga qaraganda barqarorligi isbotlandi. Indoneziya siyosati islom banklari sonining oshishini qo'llab-quvvatlashi mumkin, lekin islom banklari raqobat maydoni albatta nazorat ostida bo'lishi kerak. Islom darchalari esa tijorat banklari tomonidan qo'llab-quvvatlangani uchun darchalarda stabillik yuqori ekanligin ta'kidlashgan.

Chenguyel Muhammed Bechir va Juyru Meryem (2019) o'zlarining "Islom darchalarining an'anaviy banklarda faoliyat olib borishi" nomli maqolasida islom moliya vositalari

mahsulotlarining tijorat banklaridagi o'rnini haqida so'z yuritilgan. Maqolada korrelyatsiya tahlili uslubidan foydalanilgan va islom moliya vositalari (Muzoraba, murobaha, ijara va salam) qanchalik darajada tijorat banklari uchun foydali ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Vaqos Aliy, Imron Ibrohim Alasan va boshqalar (2021) "Qarorlar qabul qilish va savdoda strategiyaning o'rnini: islom banklari va islom darchalari o'rtasidagi farq" nomli ilmiy tadqiqotida biznes strategiyalar hisoblangan, "kam xarajatlilik" va "rang-baranglik" strategiya turlarining islom banklari va tijorat banklarida faoliyat yurituvchi islom darchalariga bo'lgan ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqotni chuqurroq olib borish uchun biznes risk menejmenti ko'nikmalarining vositachilik xususiyati va boshqaruvchilik tajribalarining o'rtamiyona xususiyatlari rollari ham o'rganilgan. Bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki yondashuv 247 ta islom banklari va 250 ta islom darchalaridan olingan ma'lumotlar asosida iyerarxik komponent va tanqidiy tahlil metodlarini baholash uchun foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yuqorida zikr etilgan ikki biznes strategiyalari banklar misollarida katta farq qilmagan. Ustiga ustak, biznes strategiyalari o'rtasida biznes risk menejmenti ko'nikmalarining roli deyarli aniqlanmagan. Bilaks, bu ko'nikmalar va faoliyatlar o'rtasida boshqaruv tajribasining o'rtamiyona rovida muhim farqlar ko'zga tashlandi va ular yoritilgan. Yaqin o'n yillikda, Pokistonda, an'anaviy banklarning islom bankchilik sanoatiga adaptatsiya qilinishining asosiy sababi sifatida mamlakatda faoliyat yurituvchi Pokiston davlat bankining yo'li ko'rsatilgan. An'anaviy banklarning islom darchalariga aylantirilishi islom bankchilik sanoatida yangi raqobat maydonini yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot bir nechta amaliy ta'sirga ega. Birinchidan, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Biznes risk menejmenti amaliyotiga kamroq e'tibor, samarasi kam bo'lgan raqobat strategiyasiga olib kelishi asoslangan. Shunday qilib, siyosatchilar va boshqaruvchilar raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun raqobatbardosh strategiyalarni amalga oshirishda BRM amaliyotiga ko'proq e'tibor qaratishlari kerakligi aytib o'tilgan. Ikkinchidan, islom darchalarining menejerlarida boshqaruv qobiliyatining yetishmasligi tufayli, bu esa bankni past ko'rsatkichlarga olib keladi. Islomiy darchalarning mas'ul organlari menejerlar uchun boshqaruv tajribasi, ko'nikmalari va malakasini oshirish uchun o'quv va rivojlanish dasturlarini o'tkazishlari kerakligi aytilgan. Uchinchidan, ushbu tadqiqot bir biznes rejimidan boshqa biznes rejimiga o'tishni rejalashtirayotgan muassasalar uchun ham foydali bo'lishi zikr etilgan.

Islom banklari va islom darchalari o'rtasidagi taqqoslash raqobatbardosh biznes muhitini o'rganadigan fanlarga noyob nazariy hissa qo'shgan. Muhimi, bir tomondan, islom banklari an'anaviy banklar va islomiy darchasi mavjud bo'lgan an'anaviy banklar bilan sof ikki tomonlama raqobatga duch kelgan. Boshqa tomondan, islom darchalari ham o'zlarida mavjud bo'lgan kuchli shariat "ildizlari" tufayli islom banklarning kuchli raqobatiga duch kelishmoqda. Shunday qilib, har ikki turdagi banklarga nisbatan raqobatbardosh bosim ularning faoliyatini tezlashtirish va bank xavfini bartaraf etish uchun raqobatbardosh strategiyalar va korxonalar risklarini boshqarish amaliyotiga ko'proq e'tibor qaratishni talab qilishi aniqlangan. Ushbu natijalar biznes egalari, menejerlar va siyosatchilari uchun foydalidir, chunki ushbu tadqiqot avvalgi tadqiqotchilar tomonidan e'tiborga olinmagan yuqori raqobatbardosh muhitni yoritib bergan.

Hamim S. Ahmad Muxtar, Naziruddin Abdulloh va boshqalar (2008) "Malayziyadagi islom banklarining samaradorliklari" nomli ilmiy izlanish natijalarida Malayziyada 2007-yilda islom darchalari, islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlarni o'rganib chiqar ekan, olimlar islom darchalarining islom banklariga nisbatan kam samara boshini aytib o'tishgan. Lekin boshqa tarafdin olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, islom darchalarining to'liq aktivlari, depozitlari va moliyalashtirish qiymatlari so'nggi 5 yil davomida muntazam islom banklariga nisbatan yuqori bo'lib kelgan. Ustiga ustak, chet el kapitali ishtirokidagi islom darchalari mahalliy islom darchalariga qaraganda samaraliroqligi tahlil natijalaridan ayon bo'lgan.

Shatha Qamhi Hoshim va Islom Abduljavid (2019) "Islom banklarining tizimli risklarga chidamliligi: Bangladeshdagi afsona yoki haqiqat bo'lgan dalillar" nomli maqolasida, bank

institutlari modellari turlari o'rtasidagi farq, ularning sistematik riskka nisbatan himoyalanganligi va umumiy market riskiga sistematik riskning tasiri asosida o'rganilgan. Olimlar bu holatni tahlil qilishda Bangladeshdagi har bir savdo bilan hug'ullanadigan bank institutlarining sistematik riskini o'rganishgan, buni esa har bir bankning (islom banklari, islom darchalari va an'anaviy banklar) taklif etgan xizmat turlarini yoritish bilan amalga oshirilgan.

Tahlil uch 3 davrni o'z ichiga olgan va ular iqtisodiy inqirozdan oldingi (2005-2006) iqtisodiy inqiroz (2007-2008) va iqtisodiy inqirozdan keying davrlarni o'z ichiga olgan va unda 15 ta an'anaviy, 8 ta islom darchasi va 4 ta islom banki tadqiqot obyekti sifatida olingan.

Natijalar shuni ko'rsatganki, iqtisodiy inqiroz va undan keyingi davrida an'anaviy banklar sistematik riskka eng chidamsiz banklar bo'lib chiqqan, lekin islom banklari va darchalarida bu davrda holat nisbatan ancha ijobiy bo'lgan. Asosiy sabab sifatida, islom banklari va darchalarining har bir tranzaksiyasi haqiqatda mavjud aktivlarga asoslanishi bilan izohlangan.

Fayaz Ahmad Lon (2017) o'zing "Islom banklari va darchalari mijozlarining banklari bo'yicha taqqoslanmasi" nomli maqolasida islom banklari va islom darchalaridagi xizmat ko'rsatish sifatini taqqoslagan. Pokistonda islom moliya muassasalarining xizmat ko'rsatish sifatini tekshirish maqsadida "SERVEQUAL" modeli tashkil etilgan. 5 ta asosiy kriteriya bo'yicha bank xizmatlari sifati baholangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, islom banklari islom darchalariga qaraganda sifatliroq xizmat ko'rsatishi oydinlashdi. Birinchidan, bunga asosiy sabab sifatida islom darchalari an'anaviy banklar tomonidan nazorat qilinishi va bu banklarning katta hamkorlari ham an'anaviy tarzda faoliyat yuritishi aytilgan. Bu esa, o'z o'zidan bu bankning islom darchasiga kam e'tibor berishi va bu esa bankning mahsulotlarini tashkil etuvchi asosiy tizimga ko'p e'tibor qaratishi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, islom banklari bozorda yangi ishtirokchilar hisoblangan va bu esa banklar mijozlarni jalb etish uchun imkoniyatlarni ochib beradi. Mijoz bu holatda albatta yaxshi xizmat ko'rsatishni taklif etayotgan bankka murojaat etadi. Uchinchidan, islom banklarining kichik bir xatosi ularning faoliyatiga nuqta qo'yishi mumkin, chunki bank o'ziga bo'lga ishonchni an'anaviy banklar singari yuqori holatga hali olib chiqmaganligi aytib o'tilgan.

E.H. Mahkamov o'zining (2021) "Tijorat banklarida faoliyat ko'rsatuvchi islom darchalarining dolzarbligi" nomli ilmiy maqolasida tijorat banklarida islom darchalarining o'rni haqida fikr yuritgan. Banklarda islom darchalari o'zini oqlaydi, chunki bu orqali ko'plab banklar moliyaviy resurslar, inson kapitali va islom moliyasini rivojlantirish uchun mavjud infratuzilma bilan boshqariladi. "Islom darchasi"ni yaratish orqali bank yangi aktivlarni jalb qilishda o'ziga muammo tug'dirmasdan, bozorni o'rganish, uning salohiyatini aniqlash imkoniyatiga egadir, chunki mavjud filiallar orasidan "Islom darchasi" yaratilishi mumkin deb hisoblagan. Islom darchalari mamlakatda islomiy bankchilikni rivojlantirish uchun debocha rolini zikr etadi. Agar uning xizmatlariga talab yaxshi bo'lsa, uni mustaqil islom banklariga aylantirish mumkinligi ham nazardan chetda qolmagan.

Azim Sardor, Muhammad Masud Azim, Sarfraz Hassanand Xuda Baxshlar o'zlarining (2013) "Islom banklari va islom darchalari samaradorliklari taqqoslanmasi. Islomiy bankchilikni agrosanoat sektorida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy izlanish olib borishgan. Tadqiqotda Pokistonda 2008-yildan 2010-yilgacha islom moliya muassasalarining "ma'lumotlarning yig'indisi"ning tahlili o'rganilgan. O'sha davrgacha islomiy bankchilik Pokistonda islom banklari soni yilma-yil ko'payib bordi. Islom banklarning kirim samaradorligi islom darchalari kabi yuqori bo'lmagan. Bunga asosiy sabab islom darchalarining kamchiqimli harajatlari bo'lgan. Lekin, umum olganda islom banklari islom darchalariga qaraganda samaraliroq bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatganki, islom banklari uchun jami aktivlarini oshirish va kreditorlik qarzlarini yopish tavsiya etilgan. Islom banklari agrosanoat sektorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, fermerlar va bank o'rtasida salam moliyaviy vositasi orqali kerakli xom-ashyo va traktorlar sotib olish imkonini bergan.

Dr. Shamsaldin va Aziz Salhlar (2019) "Tijorat banklaridagi islom darchalari oldidagi to'siqlar va yechimlar" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borishgan. Islom darchalari asosan ikkita

muammoga duch kelishgan. Birinchisi, u yerda islom moliyasi bo'yicha kadrlarning yetishmasligi bo'lsa, ikkinchisi, shu muammo sabab yuzaga keladigan shariat qonun-qoidalariga tushmaydigan moliyaviy operatsiyalarning mavjudligidir. Shu sabab islom darchalarining mijozlari kam sonni tashkil etishgan. Yana bir muammo shundan iborat ekanki, islom darchalari jalb etgan kapitalning tijorat banklari jalb etgan kapital bilan aralashib ketishidir. Mana shunday holatlar yuz bermasigi uchun islom darchalarida Shariat qo'mitasi bo'lishi zarurligi aytib o'tilgan.

Zayniddinov (2022) "O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islomiy bankchilik xizmatlaridan foydalanishning kengayishi" mavzusida ilmiy maqola yozgan. Maqolada O'zbekistonda islom banklari uchun eng katta muammo bo'lishi kutilayotgan soliq tizimi to'g'risida gap ketgan. Ya'ni islom banklari oldi-sotdi bilan shug'ullangani uchun ikki martalab soliq to'lashi va jarimalardan tushgan mablag'lar uchun ham soliq hisoblanishi nazarda tutilgan. Bu holatda islom darchalari muammo uchun yechim bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan.

Xaydarov (2022) "Respublikamiz tijorat banklarida islom moliya tizimidan foydalanishni takomillashtirish" nomi ilmiy izlanishida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining islom moliya instrumentlaridan foydalanish bo'yicha imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritgan. Shuningdek, islom darchalarining imkoniyatlari, afzalliklari va rivojlantirish istiqbollari takomillashtirish haqida fikr yuritgan. Olim quyidagi takliflarni berib o'tgan:

1) islom darchalarini ochmoqchi bo'lgan banklar o'z tarkibida islom fiqhi, islom moliyasi va huquqi bo'yicha olimlar/ekspertlar, hamda bank ishi mutaxassislari bo'lgan mustaqil shariat qo'mitasiga ega bo'lishlari kerak.

2) Islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish uchun amaldagi bank qonunchiligi, soliq va fuqarolik kodekslari hamda boshqa qonunosti hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish yoki alohida qonun qabul qilinishi lozim. Shuningdek, bu sohada kadrlarni tayyorlash va aholining savodxonligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Ali Juma Xafafa and Zurina Shafiy (2013) "Liviya'dagi islomiy bankchilik darchasi bo'yicha mijozlarning xizmat va islomiy bankchilik bo'yicha xulosalari" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borishgan. Ushbu tadqiqot islomiy oyna tizimi ostida ishlaydigan Liviya banklarida mijozlar ehtiyojini qondirish sifatini va ularning mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'sirini o'rganish orqali o'lchashga qaratilgan. Amalda mavjud SERVQUAL (xizmat sifati) modelidan foydalanib, tekshiriladigan xizmat sifatining me'zonlari: aniqlik, ishonchlilik, sezgirlik va hamdardlik. Ushbu tadqiqot, shuningdek, Liviya mijozlarining bank xizmatining asosiy tushunchalarini, ya'ni mudoraba, mushoraka, murobaha, ijara moliyalashtirish va bir qator foizsiz bank xizmatlarini tushunish kabi turli xil islom bank mahsulotlari bo'yicha savodxonlik darajasini o'rgangan. Liviya'dagi uchta tijorat bankidan Jumhuriya Bank, Vahda Bank va Sahara Bank kabi islom moliyaviy tizimini qabul qilgan va 3 bankdan 366 ta bank amaliyoti namunalari olingan. Tadqiqotchi ishonchlilik so'rovnomasini hisoblash uchun Cronbach Alfadan foydalangan. Va nihoyat, tadqiqotchi SERVQUAL modelida ko'rsatilganidek, mijozlarning ko'rsatilgan xizmatdan qoniqishi va xizmat sifatining besh o'lchovi o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun bir nechta regressiya tahlilini o'tkazgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mijozlar ehtiyojini qondirish va xizmat ko'rsatish sifati konstruksiyalari o'rtasida aniqlik, sezgirlik, ishonch va hamdardlik kabi ijobiy va muhim munosabatlar mavjud, bundan tashqari ishonchlilik o'lchovi mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'sir qilmagan. Ushbu tadqiqot natijalari Liviya'da bank sektorini, ayniqsa islom bank darchasi tizimini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan hukumat tomonidan yo'l xaritasini ishlab chiqish uchun foydali bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatganki, o'z navbatida, mijozlarning aksariyati ijara moliyalashtirish (80.3%) kabi turli xil Islomiy moliyaviy mahsulotlardan bexabar edilar. Bundan tashqari, faoydalanuvchilarning 56% va 55,2% mudoraba va mushorakadan umuman bexabar ekanligi ayon bo'lgan. Banklar seminarlar tashkil qilishi, shuningdek, banklar orqali taqdim etilayotgan mahsulotlar to'g'risida mijozlarning xabardorligini oshirish uchun varaqalar yoki varaqalarda reklama taqdim etish

orqali marketing strategiyasini takomillashtirishi mumkin bo'lgan ba'zi takliflarni bartaraf etish uchun ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan. Banklar, shuningdek, mijozlardan ko'proq qo'llab-quvvatlash olish uchun o'z mijozlariga bankning Islom shartlariga amal qiladigan moliyaviy vositalar va qoidalar haqida ma'lumot berishning ba'zi usullarini topishlari mumkin bo'lgan.

Serhe Agboja va Kufer Tumi, Xolid Husayniy o'zlarining "Buxgalteriya standartlari va buxgalteriya ma'lumotlarining ahamiyati: Islom, an'anaviy va gibril banklarining taqqoslanma tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi Islom, an'anaviy va gibril banklar uchun buxgalteriya ma'lumotlarining ahamiyatini o'rganish bo'lgan. Tahlida 14 ta davlatning 201 ta banklarini qamrab olgan. Ulushga nisbatan daromad islom banklari va gibril banklari an'anaviy banklardan nisbatan yuqori bo'lgan⁴⁹.

Danchenko (2013) "Rossiya bank tizimida islom darchalarining faoliyatini yo'lga qo'yish istiqbollari" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Tadqiqotda Rossiyaning islom bankchilik tizimi bo'yicha imkoniyatlari o'rganilgan. Chunki, islom dini boshqa dinlarga qaraganda jadal suratda o'sib borgan va o'sib kelmoqda. Birgina Rossiyaning o'zida 20 million musulmon yashashi va bu miqdor umumiy aholining 10% ini qamrab olishi keltirilgan. So'nggi 10 yilda musulmonlar soni 40% ga oshgan.

Islomiy bank xizmatlaridan faqat musulmonlar foydalanmaydi. Bunday banklar o'zlarining axloqiy me'yorlari - foyda va tavakkalchilikni bo'lishish tamoyillari bilan birgalikda islomga hech qanday aloqasi bo'lmagan mijozlarni jalb qilgan.

Islom darchalarini tashkil etish Rossiya iqtisodiyoti uchun foydali bo'lishi quyidagi mulohazalar orqali bayon etilgan:

- 1) mamlakatdagi musulmonlarning ijtimoiy va ahloqiy ehtiyojlarini qondirish;
- 2) aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish;
- 3) arzon mablag'larni jalb qilish orqali bank iqtisodiyotning real sektoriga yanada faolroq sarmoya kiritish imkoniyatiga ega bo'lish;
- 4) oddiy tijorat banklari uchun yopiq bo'lgan musulmon davlatlarining bank xizmatlari bozoriga kirish;
- 5) islom mamlakatlari banklari bilan banklararo munosabatlarni rivojlantirish, bu banklararo resurslar bozorida ishlash imkoniyatlarini kengaytirishi va turli moliyaviy vositalardan foydalanish imkonini berish;

Zaynurin Dahari, Muhammad Abduh, Kim-Shan Fam (2015) o'zlarining "Islom bankchiligida xizmat sifatini baholash: Muhimlilik-samaradorlikni tahlil qilish yondashuvi" mavzusida ilmiy maqola yozishgan. Maqolada Indoneziyada ishlab turgan banklarning umumiy tahlili olib borilgan. Misol uchun, islom darchalari soni 1992-yildan 2010-yilgacha 0 dan 23 tagacha oshgan. Taqqoslash uchun bu davr mobaynida islom banklari soni 1 tadan 10 tagacha oshgan. Demak, ko'rinib turibdiki, islom darchalari banklarga nisbatan tezroq o'sib borgan. Lekin darchaning filiallari soni 253 tani bankning filiallari soni 1113 tani yashkil etgan.

Ushbu empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, shariat ekspertlar kengashi yo'qligi sababli xizmatlarning joiz yoki joiz emasligi aniqlanmagani sabab va shuning uchun mijozlarni boshqa banklarga o'tishga olib kelishi mumkinligi aniqlangan. Shuning uchun quyida islom banklari va darchalari uchun mijozlarni yo'qotish oqibatlarini yumshatish va bank foydasini saqlab qolish uchun yo'l xaritasi tavsiyalari keltirilgan:

- Islom banklari o'zlarining bank mahsulotlari, boshqaruv amaliyotlari va operatsiyalari uchun shariat talablariga qat'iy rioya qilishlari kerak. Bu omonatchilarning ishonchini va ijobiy umidlarini saqlab qolish uchun juda muhimdir.
- Islom banklari so'nggi paytlarda juda mashhur bo'lganligi sababli, islom banklari moliya tizimidagi shariat masalalari bo'yicha odamlarni kengroq qamrab olish orqali raqobat strategiyalarini shakllantirishlari kerak.
- Islom banklari o'zlari uchun ahamiyatsiz deb hisoblangan, lekin mijozlar tomonidan

⁴⁹ Serge Agbodjo and Kaouther Toumi, Khaled Hussainey, Accounting standards and value relevance of accounting information: a comparative analysis between Islamic, conventional and hybrid banks, Journal of Applied Accounting Research 0967-5426.

juda muhim deb hisoblangan masalalarga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Masalan, ayol xodimlarning kiyinish kodi, yuzaga keladigan har qanday masalaga tezkorlik bilan javob berish va ajoyib shaxslararo muloqot qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Islom darchasi - bu an'anaviy bank ichidagi alohida bo'lim, shirkat bo'lib, u orqali mijozlar faqat islom shariatga mos keladigan vositalardan foydalangan holda faoliyat yurituvchi moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Dunyo bo'ylab tobora ko'payib borayotgan tijorat banklari islom moliya mahsulotlarni taklif qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqdalar. Ko'pgina mamlakatlarda bu qiziqish banklarning o'sib borayotgan musulmon aholisiga xizmatlarni taklif qilish istagiga javob beradi, shuningdek shariatga mos mahsulotlarga jalb qilingan xalqaro investorlarning o'sib borayotgan investitsiyalari ham bunga sabab bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, islom darchalari foyda samaradorlik jihatdan islom banklariga nisbatan yaxshiroq ko'rsatkichga ega ekanligini bildik. Bunga asosiy sabab sifatida tijorat banking texnik va texnologik salohiyati va moliya bozoridagi tajribasini keltirilish mumkin. Lekin bir qator islom darchalarida bir qancha muammolar uchrab turibdi. Jumladan, an'anaviy banking aktivlari bilan darchaning aktivlari aralashib ketishi shar'an joiz hisoblanmaydi. Ikkinchidan har bir islom darchasi o'zida shariat ekspertlar kengashini tuzishi shartdir. Chunki har bir moliyaviy operatsiya uchun xulosani faqat shu soha bo'yicha mutaxassislariga bera olishadi.

O'zbekistonda islom moliyasi so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Islom moliya institutlari bilan yangi shartnomalar tuzilmoqda. O'zbekistondagi mavjud tijorat banklari islom moliyasi tamoyillarini o'zida aks ettirgan islom darchalarini ochish taraddudida turibdi. Shu sababli, mavjud soliq va bank tizimi islom darchalarini ishlash faoliyatini yo'lga qo'yish uchun o'zlaridagi ishlash tamoyillarini o'zgartirish taklifi berilmoqda. Umuman olganda, islom darchasi, islom banki uchun sharoit bo'lmagan sharoitda ochiladi. Bu esa, O'zbekiston uchun yaxshi yechim hisoblanadi va biz quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Mamlakatda islom moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish;
2. Qo'shimcha xarajatlarsiz an'anaviy banklarda mavjud infratuzilma (binolar, xodimlar va boshqalar) asosida islomiy moliyaviy xizmatlarni taklif qilish;
3. O'rnatilgan islom darchalari faoliyatini o'rganish va chuqur tahlil qilish orqali mamlakatimizda "Islom moliyasi va bank ishi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish bo'yicha amaliy takliflar kiritish;
4. Aholi va xususiy sektorning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish;
5. Islom darchasi natijalarini tahlil qilish asosida banklarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Ali Joma Khafafa, Zurina Shafii, (2013) *Customer Satisfaction and Islamic Bankchilik Awareness in the Islamic Bankchilik Window System in Libya, Middle-East Journal of Scientific Research 13 (Research in Contemporary Islamic Finance and Wealth Management): 12-17, ISSN 1990-9233.*

Arief Ichwanul Hasan, Tastaftiyan Risfandy, (2021) *Islamic Banks' Stability: Full-Fledged vs Islamic Windows, Journal of Accounting and Investment Vol. 22 No. 1, January.*

Azeem Sardar, Muhammad Masood Azeem, Sarfraz Hassanand Khuda Bakhsh, (2013) *COMPARISON OF EFFICIENCY BETWEEN PURE ISLAMIC BANKS AND ISLAMIC BANK WINDOWS AND ROLE OF ISLAMIC BANKCHILIK IN AGRICULTURE SECTOR, Pakistan Journal of Agricultural Research, March 2013.*

Chenguel Mohamed Bechir, (2019) *Jouirou meriem, Installing Islamic bankchilik windows, In conventional bank: effects, performance, International Journal of Financial Engineering* Vol. 06, No. 04, 1950033.

Dilmurod Yusupaliyevich Khujamkulov, Ruhiddin Khusniddin Ogli Zayniddinov, Dilmurod Rakhmatullayevich Ergashev, Mamajon Akhmatjonovich Mamatov, Khusniddin Fakhriddinovich Uktamov, (2021) *Improving the Use of Islamic Bankchilik Services in Financing Investment Projects in Uzbekistan, REVISTA GEINTAC. ISSN: 2237-0722 Vol. 11 No. 2.*

Shamsalden Dr., Aziz Salh, (2019) *Islamic Windows of the Conventional Banks: Challenges and Solutions, 4th International Legal Issues Conference-ILIC2019 ISBN (978-9922-9036-2-0).*

Danchenko E.A., (2013) ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ «ИСЛАМСКИХ ОКОН» В БАНКОВСКУЮ СИСТЕМУ РОССИИ.

Maxkamov E.X., (2021) *Tijorat banklarida faoliyat ko'rsatuvchi islom darchalarining dolzarbligi, "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №4, 2021 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2021: 6.23*

Farhana Afroj, (2022) *Financial strength of banking sector in Bangladesh: a CAMEL framework analysis, Asian Journal of Economics and Banking, Vol. 6 No. 3, pp. 353-372.*

FAYAZ AHMAD LONE, (2017) *Customer satisfaction in full-fledged islamic banks and islamic bankchilik windows: a comparative study, Journal of Internet Bankchilik and Commerce Jan 2017, vol. 22, no. S7.*

Hakim Ben Othman and Hounaida Mersni, (2014) *The use of discretionary loan loss provisions by Islamic banks and conventional banks in the Middle East region, Studies in Economics and Finance, Vol. 31 No. 1, , pp. 106-128.*

Hamim S. Ahmad Mokhtar, Naziruddin Abdullah, Syed M. Alhabshi, (2008) *Efficiency and competition of Islamic bankchilik in Malaysia, Humanomics Vol. 24 No. 1, pp. 28-48.*

Haydarov O'ral Axmadovich, (2022) *Respublikamiz tijorat banklarida islom moliya tizimidan foydalanishni takomillashtirish, Iqtisod va moliya / ekonomika i finansi, 2(150).*

Kayimova Zumrad Abdullaevna (2021) –*PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC BANKING SERVICES MARKET IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN, World Economics & Finance Bulletin (WEFB), Vol. 2 August-September.*

Muhammad Abduh and Mohd Azmi Omar, (2012) *Islamic banking and economic growth: the Indonesian experience, International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, Vol. 5 No. 1, pp. 35-47.*

Oladipupo Luqman Salami Adewale Abideen Adeyem, (2015) *Malaysian islamic banks' efficiency: an intra-bank comparative analysis of islamic windows and full-fledged subsidiaries, International Journal of Business and Society, Vol. 16 No. 1, 19 – 38.*

Shatha Qamhie Hashem, Islam Abdeljawad, (2018) *Islamic banks' resilience to systemic risks: myth or reality-evidence from bangladesh, International Finance Rewiew 06 Nov; 37-68.*

Varsha Mooneeram-Chadee, (1976) *The regulation of Islamic banking and finance in Mauritius, ISRA International Journal of Islamic Finance, Emerald Publishing Limited, 0128.*

Waqas Ali, Imran Ibrahim Alasan, Mushtaq Hussain Khan, T. Ramayah, Abdul Rahman, (2021) *Strategy is all about deliberately making choices and trade-offs: analogy between fully-fledged islamic banks and conventional banks with islamic windows, Academy of Entrepreneurship Journal Volume 27, Special Issue 2, 2021.*

Zayniddinov Ruhiddin Khusniddin ogli, (2021) *Expanding the use of islamic bankchilik services in financing investment projects in Uzbekistan.*

Zaynurin Dahari, Muhammad Abduh, Kim-Shan Fam, (2015) *Measuring Service Quality in Islamic Bankchilik: Importance-Performance Analysis Approach, Asian Journal of Business Research ISSN 1178-8933 Issue 1.*